
Rishton tumanida “Yangi O‘zbekiston–inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ko‘tarinki ruhda boshlandi!

Avval xabar qilinganidek, viloyatimiz maskanlari, mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Yangi O‘zbekiston –inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida kontsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy uchrashuvlar va eng sara kinofilmlar namoyishi bo‘lib o‘tishi belgilangan. Bugun Rishton tumanida ushbu keng qamrovli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ko‘tarinki kayfiyatda boshlandi. Bugun tadbir ishtirokchilarini tuman hokimi va sektor rahbarlari tantanali kutib olishdi. Poytaxtimizdan tashrif buyurgan hamda viloyatimizning yetuk madaniyat va san‘at namoyandalari, ma‘naviyat targ‘ibochilari tumanimiz maskanlari bo‘ylab aholi vakillari bilan uchrashmoqdalar. Mehmonlar dastlab, Rishton tumani Nosgar mahallasida joylashgan "Ergash ota Sanginov" nomli kutubxonada bo‘lib, u yerdagi qadimiy va zamonaviy kitoblar bilan tanishishdi. Bevosita xonadon egalari bilan suhbat o‘tkazilib, kitoblar jamlanmalari sovg‘a qilindi. Shundan so‘ng ma‘naviyat targ‘ibochilari, madaniyat va san‘at sohasi vakillari To‘raobod mahallasida bo‘lib, hudud aholisi bilan uchrashdilar. Ushbu maskanda ham Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar borasidagi aniq hayotiy misollarga asoslangan mazmunli suhbatlar hamda madaniy-ma‘rifiy dasturlar barchaga manzur bo‘ldi. Tadbir doirasidagi uchrashuvlar tuman hududlari bo‘ylab davom etmoqda.

2022-05-30 13:21:55